ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 22.03.2026 · Accepted: 19.05.2026 · Published: 30.06.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/0ydmdd98

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 2 (2), 2026
www.jnculture.uz

O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri dirijyorligi tarixiga bir nazar

(A Look at the History of Conducting the Uzbek Folk Instrument Orchestra)

Muhiddin Normatov

Department of Orchestral Conducting,
The State Conservatory of Uzbekistan,
100027, Botir Zokirov, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: normatov@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrida dirijyorlik san’atining rivojlanish jarayoni, uning tarixiy shakllanishi, ijrochilik an’analari hamda zamonaviy bosqichlari tahlil etiladi. Shuningdek, orkestr dirijyorlarining ijodiy faoliyati, repertuar boyligi, milliy va akademik ijrochilik tamoyillarining o‘zaro uyg‘unlashuvi yoritiladi. O‘zbekiston davlat konservatoriyasida orkestr dirijyorligi yo‘nalishida kadrlar tayyorlash tizimi ham alohida ko‘rib chiqiladi. O‘zbek musiqa madaniyatida xalq cholg‘ulari qadimdan muhim o‘rin egallab kelgan. An’anaviy ijrochilik dastlab yakkanavozlik va kichik ansambllar shaklida rivojlangan bo‘lsa, XX asrda xalq cholg‘ularini orkestr tarkibida birlashtirish jarayoni boshlandi. Mazkur jarayon yangi ijrochilik madaniyati – dirijyorlik san’atining shakllanishiga asos bo‘ldi. O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrining dastlabki shakllanish bosqichlari 1920–1930-yillarga to‘g‘ri keladi. Bu davrda milliy musiqa an’analarini saqlagan holda ularni akademik shaklga solish, notaga tushirish va ko‘p ovozli orkestr ijrochiligini rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etdi. Maqola xalq cholg‘ulari orkestri dirijyorlik maktabining bugungi holati va istiqbollarini ilmiy asosda yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri, dirijyorlik san’ati, milliy musiqa, ijrochilik an’analari, repertuar, akademik ijrochilik, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, orkestr dirijyori, musiqiy ta’lim, zamonaviy dirijyorlik.

Abstract

This article analyzes the development of conducting art in the field of the orchestra of Uzbek folk instruments, including its historical formation, performance traditions, and modern stages. It also examines the creative activity of conductors, the richness of the repertoire, and the interaction between national and academic performance principles. Special attention is given to the system of training orchestral

conductors at the State Conservatory of Uzbekistan. Folk instruments have long occupied an important place in Uzbek musical culture. While traditional performance initially developed in the form of solo performance and small ensembles, in the twentieth century the process of uniting folk instruments within an orchestral structure began. This process contributed to the formation of a new performance culture – the art of conducting. The initial stages in the formation of the orchestra of Uzbek folk instruments date back to the 1920s–1930s. During this period, the preservation of national musical traditions, their transformation into academic forms, notation, and the development of multipart orchestral performance became especially relevant. The article aims to provide a scholarly overview of the current state and prospects of the conducting school of folk instrument orchestras.

Keywords: orchestra of Uzbek folk instruments, conducting art, national music, performance traditions, repertoire, academic performance, State Conservatory of Uzbekistan.

Аннотация

В данной статье анализируется процесс развития дирижёрского искусства в сфере оркестра узбекских народных инструментов, его историческое становление, исполнительские традиции и современные этапы. Рассматриваются творческая деятельность дирижёров, репертуарное богатство, а также взаимодействие национальных и академических исполнительских принципов. Отдельное внимание уделяется системе подготовки кадров по направлению оркестрового дирижирования в Государственной консерватории Узбекистана. В узбекской музыкальной культуре народные инструменты издавна занимают особое место. Если традиционное исполнительство первоначально развивалось в форме сольного исполнения и малых ансамблей, то в XX веке начался процесс объединения народных инструментов в оркестровый состав. Этот процесс способствовал формированию новой исполнительской культуры – искусства дирижирования. Начальные этапы становления оркестра узбекских народных инструментов относятся к 1920–1930-м годам. В этот период особую актуальность приобрели вопросы сохранения национальных музыкальных традиций, придания им академической формы, нотной фиксации и развития многоголосного оркестрового исполнительства. Статья направлена на научное освещение современного состояния и перспектив дирижёрской школы оркестра народных инструментов.

Ключевые слова: оркестр узбекских народных инструментов, дирижёрское искусство, национальная музыка, исполнительские традиции, репертуар, академическое исполнительство, Государственная консерватория Узбекистана.

O‘zbek musiqa madaniyati ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, unda xalq cholg‘ulari alohida o‘rin tutadi. An’anaviy ijrochilik dastlab yakkanavozlik va kichik ansambl shaklida rivojlangan bo‘lsa, XX asrga kelib xalq cholg‘ularini orkestr shaklida birlashtirish jarayoni boshlandi. Mazkur jarayon o‘z navbatida yangi ijrochilik madaniyatini – dirijyorlik san’atini shakllantirdi. O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrining dastlabki shakllanish bosqichlari. XX asrning 20–30-yillariga to‘g‘ri keladi [1]. Bu davrda milliy musiqa an’analarini saqlagan holda, ularni akademik shaklga solish, notaga tushirish va ko‘p ovozli ijrochilikni rivojlantirish masalalari dolzarb bo‘ldi. Aynan shu jarayonda orkestrni boshqarish zarurati paydo bo‘lib, dirijyorlik faoliyati mustaqil san’at turi sifatida shakllana boshladi. Dirijyorlar nafaqat asarni boshqarish, balki orkestr tarkibini shakllantirish, cholg‘ular diapazonini kengaytirish, yangi aranjirovkalar yaratish kabi vazifalarni ham bajardilar. Bu esa dirijyorni ijodkor shaxs sifatida namoyon etdi.

Keyingi bosqichda o‘zbek milliy dirijyorlik maktabi shakllana boshladi. Mahalliy mutaxassislar xalq cholg‘ularining o‘ziga xos tembri, lad tizimi va ijro usullarini chuqur o‘rganib, dirijyorlik amaliyotiga moslashtirdilar. Natijada, orkestr ijrosida milliy ruh va akademik aniqlik uyg‘unligi yuzaga keldi. XX asrning ikkinchi yarmida O‘zbekistonda professional orkestrlar soni ortib, ularning repertuari ham kengaydi. Klassik asarlar bilan bir qatorda milliy kompozitorlar tomonidan yaratilgan yangi asarlar ijro etila boshladi. Bu jarayon dirijyorlardan yuqori darajadagi musiqiy tafakkur, stilistik sezgirlik va ijrochilik madaniyatini talab etdi. Mazkur rivojlanishda N. Mironov, A. Petrosyans, T. Jalilov, D. Zokirov, F. Sodiqov va Firuza Abdurahimova kabi ijodkorlarning hissasi alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda xalq cholg‘ulari orkestri dirijyorligi maktabining shakllanishi XX asrning 30–40-yillariga to‘g‘ri keladi. Bu jarayonning boshlanishida N. Mironovning xizmatlari katta bo‘lib, u tashkil etgan “Nota orkestri” ilk tajribaviy orkestr sifatida milliy cholg‘ularni ko‘p ovozli ijroga moslashtirishda muhim qadam bo‘ldi. Mironov faoliyatida dirijyorlikning asosiy vazifasi turli tembr va ijrochilik

an’analarini yagona ansamblga birlashtirishdan iborat edi [2, 32-b.]. Keyingi bosqichda A. Petrosyans rahbarligidagi O‘zbek davlat filarmoniyasi xalq cholg‘ulari orkestri professional ijrochilik darajasiga ko‘tarildi. Petrosyans rahbarligidagi ustalar guruhi ko‘povozli orkestr yaratish maqsadida o‘zbek milliy cholg‘ularini tubdan takomillashtirish ustida ishladilar [5, 190-b.]. Bunda orkestr tarkibini takomillashtirish, yangi cholg‘u turlarini joriy etish va repertuarni kengaytirish orqali dirijyorlik faoliyatiga akademik yondashuvni olib kirdi. Uning faoliyati orkestrda garmonik va polifonik tafakkurning rivojlanishiga xizmat qildi. Mazkur orkestr rivojida To‘xtasin Jalilov nomi ham alohida e’tiborga loyiq. Uning ijodiy merosi va rahbarlik faoliyati orkestr repertuarining milliy ruhda boyishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Jalilov dirijyor sifatida milliy kuy va qo‘shiqlarni sahnaviy talqinda ifodalash, ularning badiiy mazmunini chuqur ochib berishga alohida ahamiyat qaratgan. O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri dirijyorlik maktabining rivojida Doni Zokirov muhim o‘rin egallaydi. U O‘zbekiston radiosi qoshidagi orkestrga asos solib, uning birinchi badiiy rahbari va bosh dirijyori sifatida faoliyat yuritgan. Zokirov ijrochilikda milliy an’analar va ko‘p ovozli musiqiy tafakkurni uyg‘unlashtirishga erishdi. Uning dirijyorlik uslubida aniqlik, ifodaviylik va tembr muvozanatiga alohida e’tibor qaratilgan. Keyingi yillarda orkestr rivojiga hissa qo‘shgan dirijyorlar qatorida M. Bafoyev, H. Rajabov nomlarini tilga olish lozim. Ularning faoliyati orkestr ijrochiligini yangi bosqichga olib chiqib, zamonaviy kompozitorlar asarlarini keng targ‘ib qilish, ijro madaniyatini yuksaltirish bilan ajralib turadi.

O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri dirijyorligi rivojida Foruq Tojiyevich Sodiqovning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Uning ijodiy faoliyati dastlab Muqimiy nomidagi teatrda sozandalikdan boshlangan bo‘lsa-da, keyinchalik dirijyorlik va pedagogik faoliyat bilan uzviy davom etdi. 1976-yildan boshlab To‘xtasin Jalilov nomidagi O‘zbekiston davlat akademik xalq cholg‘ulari orkestrining badiiy rahbari va bosh dirijyori sifatida faoliyat yuritib, ushbu jamoani yuksak professional

darajaga olib chiqdi. Shu bilan birga, Toshkent davlat konservatoriyasi va Madaniyat institutida pedagog sifatida faoliyat ko‘rsatib, ko‘plab yosh dirijyorlarni tarbiyaladi. F. Sodiqovning dirijyorlik repertuari keng qamrovli bo‘lib, unda o‘zbek kompozitorlari – M. Ashrafiy, S. Yudakov, M. Leviyev, T. Qurbonov, M. Tojiyev kabi ijodkorlar asarlari muhim o‘rin egallaydi. Shuningdek, u jahon musiqa merosini xalq cholg‘ulari orkestri uchun moslashtirib ijro etish borasida ham samarali faoliyat olib bordi. Jumladan, J. Bize, P. Sarasate, M. Glinka, P. Chaykovskiy, A. Borodin kabi kompozitorlar asarlarining talqini orkestr repertuarini boyitdi. Bundan tashqari, o‘zbek mumtoz musiqasi namunalarini (“Girya”, “Cho‘li Iroq”, “Yovvoyi Chorgoh”, “Bebokcha” va boshqalar) sahnaviy talqinda yuksak badiiy darajada ijro etilishi uning dirijyorlik mahoratini namoyon etadi [4]. Sodiqovning dirijyorlik uslubi, avvalo, orkestrda tembr muvozanatini ta’minlash, ansambl uyg‘unligini mustahkamlash hamda har bir cholg‘u guruhining ifodaviy imkoniyatlarini to‘liq ochib berishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Uning rahbarligidagi orkestr ijrolari yuqori badiiy saviyasi bilan ajralib, O‘zbekiston va boshqa mamlakatlar radio fonojamg‘armalariga yozib olingan, shuningdek, ko‘plab grammplastinkalarda muhrlangan. Dirijyorning xalqaro faoliyati ham e’tiborga molik bo‘lib, u Rossiya, Qozog‘iston, Tojikiston kabi davlatlar orkestrlariga dirijyorlik qilgan hamda Koreya, Fransiya va boshqa mamlakatlarda gastrolda bo‘lgan. Uning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan “Musiqiy palitra” nomli hujjatli film suratga olingani ham san’atkor faoliyatining yuksak e’tirofidir. Foruq Sodiqov o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri dirijyorligi maktabining yetuk namoyandasi sifatida ushbu san’at yo‘nalishining rivoji, repertuarining boyishi va ijrochilik madaniyatining yuksalishiga katta hissa qo‘shgan.

O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri dirijyorligi rivojida zamonaviy ijodkorlar orasida Firuza Abdurahimovaning o‘rni haqida ta’kidlash joizdir. U O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, professor sifatida nafaqat ijrochilik, balki ilmiy-pedagogik faoliyati bilan ham ushbu yo‘nalish taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘shib kelmoqda.

1991-yilda tashkil etilgan “So‘g‘diyona” o‘zbek xalq cholg‘ulari kamer orkestri uning bevosita tashabbusi va rahbarligi ostida shakllandi. Mazkur orkestr o‘zining ixcham tarkibi va yuqori ijro madaniyati bilan ajralib turib, xalq cholg‘ulari orkestri imkoniyatlarini yangi bosqichda namoyon etdi [3,253-b.]. Jamoa repertuarida o‘zbek xalq kuylarining qayta ishlangan namunalari bilan bir qatorda zamonaviy kompozitorlar asarlari ham muhim o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, dirijyor faoliyatida milliy musiqiy an’analarni zamonaviy akademik ijrochilik tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish ustuvor yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri dirijyorligi maktabining boyishi va takomillashuviga xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri dirijyorligi sohasida faoliyat yuritayotgan ijodkorlar milliy ijrochilik an’analarini izchil davom ettirib, uni zamonaviy bosqichga olib chiqishda muhim rol o‘ynamoqda. Jumladan, Abduvahob Sahiyev, Dilshod Mutalov, G‘ayrat Abrorov, Kamoliddin Azimov, Abdumajid Karabayev kabi dirijyorlar o‘z ijodiy faoliyatlari orqali xalq cholg‘ulari orkestri imkoniyatlarini yanada kengaytirib kelmoqdalar. Mazkur dirijyorlar faoliyatida an’anaviy ijrochilik maktabi bilan zamonaviy dirijyorlik yondashuvining uyg‘unligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Ular orkestr bilan ishlash jarayonida tembr muvozanatini ta’minlash, ko‘p ovozli fakturani aniqlik bilan ochib berish, dinamik va agogik nozikliklarni ifodalashga alohida e’tibor qaratadilar. Shu bilan birga, milliy cholg‘ularning o‘ziga xos jarangdorlik xususiyatlarini saqlagan holda, ularni akademik ijrochilik mezonlari asosida rivojlantirishga intiladilar. Zamonaviy dirijyorlarning repertuar siyosatida ham sezilarli yangilanish kuzatiladi. Ular an’anaviy o‘zbek xalq kuylarini qayta ishlash bilan bir qatorda, zamonaviy yosh o‘zbek kompozitorlari asarlarini keng targ‘ib etish, shuningdek, jahon musiqa merosini xalq cholg‘ulari orkestri uchun moslashtirib ijro etishga katta e’tibor bermoqdalar. Bu jarayon milliy musiqa san’atining badiiy ko‘lamini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ushbu dirijyorlar pedagogik faoliyat orqali ham yosh

ijrochilar va bo‘lajak dirijyorlar tayyorlashda faol ishtirok etib, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri dirijyorligi maktabining uzviy davomiyligini ta’minlamoqdalar. Ularning ijodiy izlanishlari va amaliy faoliyati natijasida orkestr ijrochiligida yangi talqinlar, zamonaviy ifoda vositalari va badiiy yondashuvlar shakllanib bormoqda. Bugungi kun dirijyorlari o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri san’atining rivojida muhim o‘rin tutib, milliy musiqiy merosni asrab-avaylash, uni zamonaviy talqinlarda namoyon etish va jahon miqyosida targ‘ib qilishga munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasida orkestr dirijyorligi yo‘nalishi bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash tizimi izchil rivojlanib bormoqda. Xususan, Orkestr dirijyorligi kafedrasida olib borilayotgan ta’lim jarayoni zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda milliy ijrochilik an’analari uyg‘unligi asosida tashkil etilgan. Mazkur kafedrada talabalarga dirijyorlik san’atining nazariy asoslari bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni chuqur egallash imkoniyati yaratilgan. O‘quv jarayonida partitura o‘qish, orkestr fakturasini tahlil qilish, ansambl bilan ishlash metodikasi, dirijyorlik texnikasi (imo-ishoralar tizimi, takt berish, dinamika va agogikani boshqarish) kabi muhim jihatlarga alohida e’tibor qaratiladi. Notaga qarab ijro qilish murakkab jarayon bo‘lib, u maxsus mashqlar yordamida o‘zlashtiriladi [4, 430-b.]. Shu bilan birga, talabalar xalq cholg‘ulari orkestri bilan bevosita ishlash jarayonida amaliy tajriba orttirib, real ijro muhitida o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash imkoniga ega bo‘lmoqdalar. Ta’kidlash joizki, ta’lim jarayonida milliy musiqa merosini chuqur o‘rganish, uni zamonaviy talqinda ifodalash ham ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu esa bo‘lajak dirijyorlarda nafaqat texnik mahoratni, balki badiiy tafakkur, stilistik sezgirlik va ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari va ijodiy loyihalar talabalarning kasbiy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ular turli konsert dasturlari, festival va tanlovlarda faol ishtirok etib,

o‘z mahoratlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “Orkestr dirijyorligi” kafedrasi bugungi kunda xalq cholg‘ulari orkestri dirijyorligi sohasida zamonaviy, raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim ilmiy-ijodiy markaz sifatida faoliyat yuritmoqda. O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri dirijyorligi milliy musiqa san’atining muhim va murakkab yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanib, tarixiy rivojlanish jarayonida o‘ziga xos ijrochilik maktabini yaratdi. Ushbu jarayonda orkestr tarkibining takomillashuvi, repertuar siyosatining kengayishi hamda milliy va akademik ijrochilik an’analarining uyg‘unlashuvi muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri dirijyorlari – N. Mironov, A. Petrosyans, D. Zokirov, F. Sodiqov kabi yetuk san’atkorlar tomonidan asos solingan dirijyorlik maktabi bugungi kunda izchil davom ettirilmoqda. Zamonaviy dirijyorlar o‘z faoliyatlarida an’anaviy ijrochilik tamoyillarini saqlagan holda, yangi badiiy yondashuvlar va talqinlarni joriy etib, orkestr imkoniyatlarini yanada boyitib kelmoqdalar. Shu bilan birga, O‘zbekiston davlat konservatoriyasida orkestr dirijyorligi yo‘nalishida olib borilayotgan ta’lim tizimi ushbu sohaning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Mazkur ta’lim jarayonida bo‘lajak dirijyorlarning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari hamda ijodiy tafakkuri kompleks tarzda shakllantirilmoqda. Natijada, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri dirijyorligi bugungi kunda milliy musiqa merosini asrab-avaylash, uni zamonaviy talqinda rivojlantirish va jahon musiqa madaniyati bilan uyg‘unlashtirishda muhim o‘rin egallamoqda. Ushbu yo‘nalishning kelgusi taraqqiyoti esa professional dirijyorlar tayyorlash, ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish va ijrochilik amaliyotini boyitish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karabayev A. Orkestr sinfi. – Toshkent: Musiqa, 2023.
2. Jabborov A., Begmatov S., Azamova M. O‘zbek musiqasi tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

3. Toshmatov E. Dirijorlik: xalq ijodiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.
4. Abdullayeva E. Orkestrlar. O'zbek xalq cholg'u orkestri va uning turlari // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2023. – Vol. 3, № 1. – b. 425–432.
5. Parpiyev T. O'zbek xalq cholg'ulari orkestri ijrochilik madaniyati va uning ba'zi umumiy shakllanish tamoyillari // Ta'lim Fidoyilari. – 2023. – DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.7836806

References

1. Karabayev, A. *Orkestr sinfi* [Orchestra Class]. Tashkent: Musiqa, 2023. (in Uzbek)
2. Jabborov, A., S. Begmatov, and M. Azamova. *O'zbek musiqasi tarixi* [History of Uzbek Music]. Tashkent: Fan va texnologiya, 2018. (in Uzbek)
3. Toshmatov, E. *Dirijorlik: xalq ijodiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik* [Conducting: A Textbook for Students of the Bachelor's Degree Program in Folk Art]. Tashkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. (in Uzbek)
4. Abdullayeva, E. "Orkestrlar. O'zbek xalq cholg'u orkestri va uning turlari" [Orchestras. Uzbek Folk Instrument Orchestra and Its Types]. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences* 3, no. 1 (2023): 425–432. (in Uzbek)
5. Parpiyev, T. "O'zbek xalq cholg'ulari orkestri ijrochilik madaniyati va uning ba'zi umumiy shakllanish tamoyillari" [Performance Culture of the Uzbek Folk Instruments Orchestra and Some General Principles of Its Formation]. *Ta'lim Fidoyilari* (2023). https://doi.org/10.5281/zenodo.7836806. (in Uzbek)